



## NAVOIY VILOYATI XATIRCHI TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-dekabr

325-5-77-Q/25

Xatirchi tuman hokimligi

### **Tuman hokimligi boshqaruv apparatining tuzilmasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-oktabrdagi "Hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun tuman (shahar) hokimliklari faoliyatini tubdan takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-186-sonli Farmoni, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6-, 22-, 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan

### **QAROR QILAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-oktabrdagi "Hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun tuman (shahar) hokimliklari faoliyatini tubdan takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-186-sonli Farmoni hamda viloyat hokimining 2025-yil 24-oktabrdagi 243-5-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin, 2026-yil 1-yanvardan kuchga kirishi belgilansin.

3. Iqtisodiyot va moliya bo'limi (O.Ernazarov) qonunchilik hujjatlarida o'rnatilgan tartibda tuman hokimligi xarajatlar smetasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritsin.

4. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2025-yil 27-fevraldagi 67-5-77-Q/25-sonli qarorining ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Ushbu qaror xalq deputatlari tuman Kengashi tasdig'iga kiritilsin.

6. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan nazoratni o'z zimnamda qoldiraman.

**Tuman hokimi**



**U.Adizov**



Hokim o'rinbosarlariga biriktiriladigan yo'nalish va tashkilotlar tuman hokimi tomonidan belgilanadi.